XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASI: IJTIMOIY-HUQUQIY TAHLIL

Sadikova Elmira Maratovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: B.M.Qandov ChDPU dotsenti, f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada zo‘ravonlikning to‘rt turi - jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy misollar va statistik ma’lumotlar orqali tasvirlangan hamda oiladagi zo‘ravonlikning salbiy oqibatlari (jismoniy vayronanlik, ruhiy kasalliklar, ijtimoiy izolyasiya) ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada, zo‘ravonlik va diskriminatsiya sabablari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini ochiqlashtirish hamda kamsitishning oldini olishga qaratilgan amaliyotga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek maqolada jamoat, davlat va diniy institutlarning rolini ochib beradi, shu bilan birga milliy va xalqaro tajriba o‘rtasidagi muvofiqlikni ochib bergan.

Kalit so‘zlar: ayollar huquqlari, zo‘ravonlik, diskriminatsiya, gender tenglik, himoya orderi, reabilitatsiya, jamiyat, Yangi O‘zbekiston, ma’rifat, jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, iqtisodiy zo‘ravonlik.

Ayollar haqida gap ketganda ko‘pincha ularning ajralmas xususiyatlari - mehr-shafqat, intizom, oilaviy mas’uliyat - esga tushadi. Shunday bo‘lsa-da, zamonaviy jamiyatda ayollar nafaqat uy-hurom ishlari bilan cheklanmay, balki ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda ham faol ishtirok etishmoqda. Shu bilan birga, oilada va jamiyatda ayollarga nisbatan kamsitish va zo‘ravonlik muammosi hanuzgacha saqlanib kelmoqda. YAngi O‘zbekistonda oxirgi yillarda gender siyosati sohasida huquqiy va amaliy choralar kuchaytirildi - himoya orderlari joriy etildi, reabilitatsiya markazlari tashkil qilindi va jamoatchilik ma’rifati uchun elektron kurslar ishlab chiqildi.

Ayollar haqida gap ketganda ko‘z oldimizga munis, ojiza bir xilqat keladi. Lekin hayot sinovlaridan bardosh bilan o‘tishda ulardagi ma’naviy kuch-quvvatiga kuchli jins vakillari ham tan beradilar. Bugungi kunda ayollar nafaqat oila, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan bandlar, shu bilan bir qatorda jamiyat hayotining muayyan sohasida o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar, ilmiy yangiliklar yaratib, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda, ish bilan ta’minlash, opa-singillarimizning og‘irini engil qilish uchun har tomonlama imkoniyat yaratish, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotimizdagi o‘rni va nufuzini oshirish bo‘yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o‘zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz”[1], deb ta’kidlagan.

Milliy va diniy qadriyatlarimizda erkakni hurmat qilish, hurmat jihatidan o‘zidan bir pag‘ona yuqori ko‘rish kabi hislatlar ayollarda bolaligidan shakllantiriladi. Lekin qaysi millat yoki din erkakka ayolini xo‘rlash, jirkanch ishlarni qilishga majbur etishga ruxsat beradi? Bu eng avvalo insoniylikka, axloq- odobga to‘g‘ri kelmaydigan harakatdir. Sahih hadislarga ko‘ra, Abdulloh ibn Zam’a roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:

«Birortangiz o‘z ayolini qulni kaltaklagandek kaltaklamasin»[2:242] dedilar. Bu bilan Islom dinida ayol kishini xo‘rlamaslikka da’vat etiladi.

“Kamsitish” (“diskriminatsiya”) - kishini irqi, jinsi, tili, dini yoki boshqa asoslarga ko‘ra har qanday farqlash, chetlatish, cheklash yoki maqbul ko‘rish hisoblanib, buning oqibatida kishining huquqlari poymol qilinadi yoki ularni ro‘yobga chiqarish qiyinlashtiriladi. Teng sharoitlar mavjud bo‘lgan holatda noteng muomala qilinsa - bu kamsitish bo‘ladi. Evropa Sudining fikricha, kamsitish – bir xildagi holatda bo‘lgan shaxsga yoki bir guruh shaxslarga turlicha muomalada bo‘lishdir. Lekin, turlicha muomalada bo‘lish hamma vaqt ham kamsitish emas. Turlicha muomalada bo‘lishni oqlovchi qonuniy maqsad bo‘lmasa yoki turlicha muomalani qo‘llash shunday xolis, oqil maqsadga muvofiq bo‘lmasa – kamsitish bo‘ladi”[3].

“Zo‘ravonlik esa qonun bilan ta’qiqlangan ma’naviy, ruhiy va jismoniy zarar etkazuvchi harakatlarni shaxs xohish irodasiga qarshi ravishda amalga oshirishdir. Zo‘ravonlikning ko‘rinishlari turlicha bo‘lib, 2019 yil 2 sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida” Qonunida zo‘ravonlikning to‘rt asosiy turi belgilangan. Bular: Jismoniy zo‘ravonlik; Ruhiy zo‘ravonlik; Jinsiy zo‘ravonlik; Iqtisodiy zo‘ravonlik[3:9].

Jismoniy zo‘ravonlik – og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari etkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish. Jismoniy zo‘ravonlikka shapaloq tortish, tepish, turtkilash, musht bilan urish; zarb bilan itarib yuborish; turli o‘tkir buyum va narsalarni otish; qurol bilan xavf solish yoki yaralash; uydan chiqishga jismonan yo‘l qo‘ymaslik; kechasi uxlashga qo‘ymaslik kabilarni misol keltirishimiz mumkin.

Ruhiy zo‘ravonlik deganda, xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, reproduktiv sohada nazorat qilish, o‘z xavfsizligi

uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar etkazgan harakat (harakatsizlik) tushuniladi.

Jinsiy zo‘ravonlikka - xotin-qizlarning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash kabilar misol bo‘ladi.

Iqtisodiy zo‘ravonlik deganda esa, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik) tushuniladi[3:9]. Ushbu zo‘ravonliklarning barcha turi afsuski ayrim oilalardan uchrab turibdi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlik qurboni bo‘lmoqda. Odam savdosi qurbonlarining 71 foizi – ayollar. Reproduktiv yoshdagi ayollar orasida o‘lim holati va nogironlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri – ularga nisbatan zo‘ravonlikning qo‘llanilishi hisoblanadi. Olim A.Murodovning izlanishlariga ko‘ra, “Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, oiladagi zo‘ravonlik jabrlanuvchilarning asosan uning ojiz bo‘lgan a’zolari, ya’ni bolalar, ayollar, qariyalar va nogironlar tashkil etadi. Oilada zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning 58,5% ayollar, 29,4% voyaga etmaganlar, 5,7% qariyalar, 3,8% erkaklar, 2,6% esa nogironlar tashkil etmoqda. Ayrim tadqiqotlarda shaxsga nisbatan tan jarohati etkazishdan jabrlangan shaxslarning 60%ni ayollar va bolalar tashkil etishi aniqlangan”[4:79].

“Ayolni diskriminatsiya qilish, uning jamiyatdagi o‘rnini faqat qozon – tovoq oldida deb belgilash an’anasi jahon sivilizatsiyasining barcha davrlarida mavjud bo‘lgan”[6:800]. Olim Hayley Y. Golden ayollarni oilada kamsitilishi, zo‘ravonlikka uchrashi haqida ilmiy tadqiqot olib borgan. Ilmiy ishida olim ayollarni oiladagi zo‘ravonlikdan keyingi ruhiy holati, jumladan, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishi, oilaviy nizolarga o‘zini aybdor deb his qilishi oqibatida ruhiy hastaliklarga chalinishi, stress va depressiya holatlarini boshdan kechirishini ta’kidlash bilan bir qatorda, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirgan ayollar bilan o‘tkazgan suhbatlarini ilmiy ishiga ilova qilgan[6].

A.Murodov yana quyidagi tahlillarni ham keltirgan: “Oiladagi zo‘ravonlikdan jabrlanganlarga oid xorijiy mamlakatlardagi ma’lumotlar o‘rganilganida, Boliviyada yiliga 17% ayollar jismoniy zo‘ravonlik jabrlanuvchisi bo‘lishi; Bangladeshda qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining 50% eri tomonidan xotiniga nisbatan sodir etilishi; YAngi Zellandiyada 20% ayollar eri yoki birga yashovchi erkak tomonidan jismoniy kaltaklanishi; Pokistonda 42% ayollar oiladagi jismoniy zo‘ravonlikni o‘zlarining taqdiri deb hisoblashi; Ispaniyada har besh kunda qasddan o‘ldirilgan shaxslarning bittasi ayollar bo‘lib, ular o‘zining turmush o‘rtog‘i tomonidan o‘ldirilganligi; Fransiyada yiliga 25 ming ayol eri tomonidan jinsiy zo‘ravonlikdan jabrlanishi; Avstraliyada ayollarning 18% oiladagi zo‘ravonlikdan aziyat chekishi va jabrlanishi; Rossiyada yiliga 36 ming ayollar oiladagi zo‘ravonlik oqibatida tan jarohati olayotganligi; Misr Arab Respublikasida 35% oilali ayollar turmush davomida kamida bir marotaba eri tomonidan qattiq jismoniy kaltaklanishi qayd etilgan”[4:82].

Imom at-Termiziy rivoyat qilgan hadisda “Ayollarni faqat karamli kishilargina hurmat qiladi, ularni faqat bezorilargina xafa qiladi”[7:83] deyilgan. Afsuski, bugungi kunda karamlilik hislati bilan sifatlangandan ko‘ra, ko‘plab insonlar berahmlilik, qahriqattiqlikni afzal ko‘rib, nafaqat ayoliga, balki farzandlariga ham ruhiy zarar etkazmoqdalar.

BMT Bosh Assambleyasining 1999 yil 17 dekabrdagi rezolyusiyasi bilan 25 noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifati belgilangan. 2014 yilda BMT Bosh kotibi xotin – qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilangan. 2014 yilda BMT Bosh kotibi xotin – qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarni bartaraf etishga qaratilgan “UNITE” nomli tashabbusini ochiq deb e’lon qildi. Shu munosabat bilan har yili dunyo miqyosida 25 noyabrdan 10 dekabrgacha “Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun” shiori ostida turli tadbirlar o‘tkaziladi. Bu global kampaniya jahonning 187ta mamlakatida o‘tkazilib, 6 mingdan ziyod tashkilotlar hamda 300 million kishini qamrab oladi. Ushbu kampaniya ayollarga nisbatan zo‘ravonlik inson huquqlariga zid harakat ekanini ifodalovchi fikr bilan ramziy bog‘langan ikki voqea 25 noyabr –

Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish kunida boshlanib, 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kunida yakuniga etadi. O‘zbekistonda ushbu tadbirlar 2011 yildan buyon “Uydagi osoyishtalikdan dunyodagi tinchlik sari” shiori ostida muvaffaqiyatli o‘tkazilmoqda.

2021 yilda mamlakatimizda oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 8ta normativ – huquqiy hujjat qabul qilindi. SHuningdek, 2020 yilda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan 14 ming 770 nafar xotin – qizlarga himoya orderi berilgan bo‘lsa, 2021 yilning 10 oyi davomida 32 ming 154 nafariga ana shunday himoya orderi berildi. Ushbu raqamlar zo‘ravonlik holatlari ko‘payayotganidan emas, balki xotin – qizlarning huquqiy ongi va qarashlari yuksalayotganidan, qolaversa, joylarda profilaktika inspektorlarining faol ishlayotganidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin – qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida Mahalla va oilani qo‘llab – quvvatlash vazirligi huzurida 29ta ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari tashkil etildi. 2021 yil 12 noyabrdan boshlab “1146” qisqa Ishonch telefoni ishga tushurildi. Ishonch telefoni “AZIZ-AYOL.UZ” yagona interaktiv milliy platformasi bilan muvofiqlashtirildi. Adliya vazirligi tomonidan xotin – qizlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishga qaratilgan onlayn o‘quv kurslari ishlab chiqilib, barcha uchun bemalol foydalanish imkoniyati yaratilgan “kurslar.huquqiyportal.uz” elektron plptformasiga joylashtirildi.

Bu kabi zo‘ravonlik, ayollarning haqlari poymol etilayotgan holatlar haqida biz internet tarmoqlari, ommaviy axborot vositalaridan xabardor bo‘lib turibmiz. Eng achinarli tomoni shundaki, odamlarning eti qotib, bunday hodisalarni tabiiy jarayondek qabul qilishlaridir. Aslida, bunday vahshiylik, odam qadrini erga uruvchi holatlar millatimiz, dinimiz, umuman insoniyatga yot tushunchadir. Ma’rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo‘lmoq ila hosil bo‘lur. Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas”[8, 65] deganlar.

Butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham gender tenglikka oid izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin afsuski, xalqimizning huquqiy, diniy savodxonligining etarli emasligi gender tenglilik prinsipini amaliyotda keng, samarali qo‘llay olish imkonini ortga surmoqda. Ayrim insonlar tomonidan gender tenglik va Islomda ayol huquqlari bir – biriga zid tushuncha deb qaralayotgani, “gender tenglik” va “feminizm” tushunchalarini bir xil ma’no aks ettiradi deb o‘ylab, unga salbiy qaralayotgani achinarli holat.

Har bir illat bekorchilik, o‘zidan boshqaning dardini his qilmaslik, loqaydlikdan kelib chiqadi. Makhul roziyallohu anhu Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: “G‘iybatchi, maddoh, ta’na qiluvchi va o‘likka o‘xshab yuruvchi kishilar bo‘lishdan saqlaninglar”, degan hadislaridagi “o‘likka o‘xshab yuruvchilar”ni kasb bilan shug‘ullanmaydigan kishilar, deb izohlaganlar”[9, 25]. Bu illatlar nafaqat bir inson, balki jamiyat kelajagiga salbiy ta’sir qilishidan ogoh bo‘laylik. Bu muammoni yoritishdan maqsadimiz erkak va ayol o‘rtasiga nifoq solish yoki ularni kamsitish emas. Balki milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni unutganlar uchun eslatish, amal qilayotganlardan o‘rnak olishdan iborat. Har bir inson haq- huquqlarini talab qilganda emas, balki bir-birini hurmat qilganda, huquqlarini poymol qilmaganda, qadr topgandagina baxtlidir.

Oilada va jamiyatda ayollarga nisbatan sodir etilayotgan turli shakllardagi zo‘ravonlikning borligi va uning inson hayotiga hamda jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zo‘ravonlikning asosiy omillari - ijtimoiy stereotiplar, huquqiy madaniyatning etarli emasligi va iqtisodiy beqarorlikdir. Davlat tomonidan qabul qilingan qonuniy chora-tadbirlar (himoya orderlari, reabilitatsiya markazlari, ishonch telefonlari) ijtimoiy muammoni engillatishga xizmat qilayotgani qayd etildi, ammo ularning samaradorligini oshirish uchun amaliy ijro, resurslar va jamoatchilik ma’rifatini yanada kuchaytirish lozim. SHu sababli biz quyidagi takliflar ilgari surishimiz mumkin: birinchidan, huquqiy himoyani yanada mustahkamlash va joylarda tezkor amal qiluvchi mexanizmlarni joriy etish; ikkinchidan, profilaktikaga yo‘naltirilgan ma’rifiy dasturlarning kengayishi, jumladan umumiy ta’lim va diniy tashkilotlar bilan hamkorlikda; uchinchidan, jabrlanganlarga psixologik va iqtisodiy reabilitatsiyani ta’minlash uchun resurslarni oshirish; to‘rtinchidan, gender tengligi mavzusida mediamadaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor

qaratish. Ushbu choralar ijtimoiy ongni o‘zgartirish, zo‘ravonlik holatlarini kamaytirish va ayollarning huquqiy himoyasini ta’minlashga yo‘naltirilgan va amaliyotda ijro etilsa samarasi sezilarli bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz. // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Tom 1. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. –B.131-165.

2. “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam». Tarjimon: SHayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. –Toshkent: “HILOL-NASHR”, 2018. – B. 242.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila“ ilmiy-amaliy tadqiqot markazi “Zo‘ravonlikdan jabrlanganlar huquqlarini himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish”. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Baktria press”, 2020. – B.9.

4. Murodov A.SH. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2019. – B.79.

5. Brokgauz’ F.A., Efron’ I.A. Talmud. 100 velikix knig: Ensiklopedicheskiy slovar. – S. Peterburg: 1894. - st. 800.

6. Hayley Y. Golden. The effects of wife-abuser socio-economic level, type of abuse, and rather gender, on attribution of blame. A dissertation submitted in partial fulfillment of the requirements for the degree of Doctor of Philosophy in psychology. – University of Rhode Island: 2009.

7. At-Termiziy. Ash-shamoyil an-Nabaviya. – Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 1993. – B.83.

8. Jadid adabiyoti namoyondalari. “Odob-axloq kitobi”. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. – Toshkent: 2018. – B.65.

9. Al-Faqix Abu Lays As-Samarqandiy. Tanbehul – g‘ofiliyn (G‘aflatdan uyg‘onish). 3-kitob. – Toshkent: “Movarounnahr”, – Toshkent: 2003. – B.25.